



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
INNOVATSION  
RIVOJLANISH VAZIRLIGI**

# **BOSHLANG'ICH TA'LIMGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TATBIQ ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA RIVOJLANISH OMILLARI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI**

## **MATERIALLARI**



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ  
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ  
МАКТАБГАЧА ВА БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ ФАКУЛЬТЕТИ  
БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ МЕТОДИКАСИ КАФЕДРАСИ**

**БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМГА РАҚАМЛИ  
ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ТАТБИҚ ЭТИШНИНГ  
ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА  
РИВОЖЛАНИШ ОМИЛЛАРИ**

**ХАЛҚАРО МИҚЁСИДАГИ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН**

**МАТЕРИАЛЛАРИ**

**2021 йил, 1 -2 апрель**

**Бухоро - 2021**

“Unli va undosh tovushlar, harflar”, “Aytilishida va yozilishida farqlanuvchi undoshlar” kabi mavzularni tushuntirish jarayonida imlo qoidalarini talaffuzdan ajratib o‘rgatib bo‘lmaydi. Chunki ular tilning tovush tomoni bilan bog‘langan. Masalan, vaziyatga ko‘ra qisqa va cho‘ziq talaffuz qilinadigan unli va undoshlar yozish uchun o‘quvchilar bunday tovushlarni eshitib, farqlashi lozim. Aytilishida va yozilishida farqlanuvchi undoshlarni topish malakasini mustahkamlash uchun birinchi darsdanoq so‘zlarni to‘g‘ri tahlil qilish, qisqa talaffuz qilinadigan unli va undosh tovush-harflarni farqlash ustida ish olib borish kerak.

Boshlang‘ich ta‘limning birinchi yilidayoq o‘quvchilar so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratishga o‘rganadi. O‘quvchilarda bo‘g‘inga ajratish malakasi eshitish xarakteridagi mashqlar yordamida “Alifbe” darslarida shakllanadi.

O‘quvchilarning “Unli va undosh tovushlar, harflar” mavzusini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishi ular tomonidan “Bo‘g‘in”, “Gap” kabi mavzularning ham puxta o‘zlashtirilishi uchun zamin yaratadi.

O‘quvchilarning og‘zaki nutqi yaxshi rivojlangan bo‘lsa, hamma tovush va so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz etsa, albatta, yozma nutqi ham ravon va tushunarli bo‘ladi.

So‘zlarning grammatik shakllari, sintaktik hodisalar ham badiiy matnlarda katta ifodalilik va ahamiyat kasb etishi mumkin. Matn tahlilida muallif, personajlar va hikoyachi nutqining o‘ziga xosliklarini hisobga olish kerak.

So‘zlar lug‘aviy ma‘nosining o‘quvchilar tomonidan anglashilishi nutq o‘stirish bilan bog‘liq muhim vazifalardan bo‘lib, keyingi bosqichda gapdagi muayyan lug‘aviy ma‘noga ega bo‘lgan so‘z ustida ishlashda o‘z samarasini beradi. Demak, o‘quvchilarning saylanma so‘zdan foydalana olish malakasini matn ustida ishlash orqali shakllantirish mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini o‘stirish yuzasidan olib borilgan kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning ko‘pchiligi o‘z fikrini ifodalashga qiynaladi, uni mantiqan izchil bayon qila olmaydi, bog‘lanishli jummalarni noto‘g‘ri yoki noo‘rin tuzadi. Zero, ular hali gap qurilishini, mustaqil gaplarning o‘zaro bir-birlari bilan bog‘lanish shartlaridan xabardor emas. Shuning uchun o‘qish darslarida amalga oshirilayotgan o‘quvchilarda nutq o‘stirish borasidagi harakatlarning ona tili darslarida matn ustida ishlashga oid mashqlar bilan uzviy bog‘lab olib borilishini ta‘minlash maqsadga muvofiqdir.

Uzluksiz ta‘limning har bir bosqichi muayyan vazifaning hal qilinishini ta‘minlaydi. Savodga o‘rgatish nutqning tovush xususiyatini anglashning asosiy bosqichlaridan biridir. Shunga bog‘liq holda maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolada so‘zning tovush tarkibini tahlil qilishga qiziqishlar yuzaga keladi. Bola ayrim tovushlarni farqlay olsa-da, ularni so‘z tarkibida mustaqil tahlil eta olmaydi. Shu sababli savodga o‘rgatish davrida bunday tahlilni amalga oshirish tovushlarni anglashda yangi bosqichni yuzaga keltiradi.

Xulosa qilib aytganda, savod o‘rgatishga tayyorgarlik bosqichida og‘zaki nutq va grafik tasvirlangan nutqning garmonik birligi boshlanadi. Bu o‘quvchilarga keyinroq og‘zaki nutqdan yozma nutqqa o‘tishda yengillik tug‘diradi. Shu bois savod o‘rgatish bo‘yicha har bir darsda bog‘lanishli og‘zaki nutqni rivojlantirishga e‘tibor qaratish talab qilinadi. Bunday darslar og‘zaki nutqni rivojlantirish bilan birga o‘quvchilarning lug‘at boyligini orttirish, fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga ham yordam beradi. Ona tili darslari grammatik-orfografik materialni nutq madaniyatini shakllantirish bilan bog‘lash uchun keng imkoniyatlarga ega. Bunday ishni tashkil qilish nafaqat nutq o‘stirishga doir zarur malakalarni shakllantirishni ta‘minlaydi, balki ona tilini o‘rganishga qiziqish, unga nisbatan hurmat va muhabbat uyg‘otadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – T., 2017. – № 6(766), 70-modda.

2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati / 5 jildli. To‘rtinchi jild. A.Madvaliyev tahriri ostida. Tahrir hay‘ati: E.Begmatov va boshq. – T.: “o‘ME” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.

#### **BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QISH DARSLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

**G.T.Cho‘liyyeva,**

*BuxDU o‘qituvchisi*

**K.Q.Siddiqova, 3-kurs talabasi**

*Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘qish darslarini samarali va sifatli o‘tish uchun turli pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo‘llari haqida fikrlar bildirilgan. O‘qish darslarining*

tuzilishi, dars bosqichlarida foydalaniladigan usullar va ularning o'tkazilish tartibi haqida to'xtalinib, misollar vositasida izohlangan.

**Kalit so'zlar:** o'qish darslari, metod, texnologiya, pedagogika, integratsiya, kompetensiya, to'g'ri o'qish.

**Аннотация.** В этой статье представлены идеи о том, как использовать различные педагогические технологии для повышения эффективности и качества уроков в начальной школе. Структура уроков, методы, используемые на этапах уроков, и порядок их проведения описаны и объяснены на примерах.

**Ключевые слова:** уроки чтения, метод, технология, педагогика, интеграция, компетентность, правильное чтение.

**Annotation.** This article provides ideas on how to use different pedagogical technologies for the effective and quality of primary school lessons. The structure of the lessons, the methods used in the stages of the lessons and the order of their conduction are described and explained by examples.

**Key words:** reading lessons, method, technology, pedagogy, integration, competence, correct reading.

Hozirgi davrda mamlakatimizning barcha sohalarida, shu jumladan, xalq ta'limi tizimida ham amalga oshirilayotgan keng ko'lamli o'zgarishlar barcha pedagoglar oldiga o'quvchining bilimni yuksak darajada oshirish; mustaqil tafakkurini, ularning hayotiy faolligini rivojlantirish; yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash; tafakkur, muloqot, o'qish, mehnat qilishga bo'lgan qobiliyatlarini taraqqiy ettirish kabi murakkab va mas'uliyatli vazifalarni qo'yimoqda.

Har bir bola faqat o'ziga xos bilish faoliyati, iroda, xarakter, xulq-atvor xususiyatlariga ega. Maktabdagi ta'lim-tarbiya berish jarayonida mana shu xususiyatlarni bilish va shunga asoslanib ularga individual munosabatda bo'lish lozim. Shular hisobga olingandagina, har bir pedagog o'zining asosiy vazifasi, ya'ni yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish ishini muvaffaqiyatli amalga oshiradi.

Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan o'qish, matematika, ona tili, tabiatshunoslik, odobnoma darslari o'z maqsadi, mohiyati va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Sababi ularning zaminida savodxonlik, axloqiy-ta'limiy hamda tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf darslarida o'quvchilarning qiziqishlarini oshirishga, ularning dars davomida diqqatini dars jarayoniga jalb qilishga alohida e'tibor berish lozim. Bugungi kunda ilg'or, tajribali pedagoglarimiz bunday natijaga erishish uchun turli interfaol metodlardan, didaktik o'yinlardan foydalanishmoqda.

Boshlang'ich sinf o'qish darslari ham xuddi shunday shakllarda tashkil etilmoqda. O'quvchi matnni to'g'ri, tez, tushunib o'qish, mazmunni o'zlashtirish bilan ilk bor o'qish darslarida duch keladi. O'qish darslarida bolalarga Davlat ta'lim standarti talablari bo'yicha o'zlashtirishlari kerak bo'lgan bilimlar beriladi. Boshlang'ich sinf o'qish darsliklarida berilgan mavzular doirasi ancha keng bo'lib, ular ona tabiat, yil fasllari, xalq og'zaki ijodi, mehnatga muhabbat, asosiy bayram sanalari, istiqloq, vatan, ma'naviyat kabi umumiy mavzular doirasida birlashtirilgan.

O'qish darslariga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish axborot va ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim mazmunida o'ziga xos hamda o'quvchi shaxsidan o'ziga mos kompetensiyani shakllantiradi. Ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida yangi bilimlarni ta'lim mazmuniga mos tarzda zamonaviy ruhda singdirish, pedagogik texnologiyani ta'lim tizimiga keng joriy etish, komil inson etib tarbiyalash, ta'lim-tarbiya tizimini sifat jihatiidan butunlay yangi bosqichga ko'tarish bugungi kunning dolzarb masalasidir.

O'qish darslarida "Bumerang" texnologiyasi, "Arra", "o'z o'ringni top", "FSMU", "Nima uchun?", "Ikki qismli kundalik" metodlari, "Pinbord" usuli, "She'rni tikla" kabi mashqlardan foydalanib o'tish dars samaradorligini yanada oshiradi.

Masalan, 4-sinf "o'qish" kitobida keltirilgan Xudoyberdi To'xtaboyevning "Erka cholning o'rigi" hikoyasi darsida "Raketa uchdi" o'yini, "Zig-zag" strategiyasi metodlaridan foydalansak bo'ladi. "Raketa uchdi" o'yinida o'quvchilarni ikki guruhga bo'lamiz. Raketalar shakliga savollar yozib, har ikkala guruhga tarqatamiz. Guruhdagi o'quvchilar birin-ketin savollarga javob beradilar. Raketalar quyidagi savollar yoziladi:

1. Erka cholning o'rigining nomi nima edi?
  2. Hikoyada qanday maqollar keltirilgan?
  3. Bobo kim bilan qishloqqa bordi?
  4. Bobosi va nabirasi nima olib kelgani boradi?
  5. Bobo bilan nabira ko'chatni qayerdan olib kelishadi?
- "Zig-zag" strategiyasi metodi. Strategiyani qo'llash jarayoni:

- \*Sinf o'quvchilari bir necha guruhga bo'linadi.
- \*Hikoya ham tegishli ravishda 3, 4ga bo'linadi.
- \*Har bir guruhga mavzuning muayyan qismi beriladi va uni o'rganish vazifasi topshiriladi.
- \*Belgilangan vaqt mobaynida guruhlar matn ustida ishlaydilar.
- \*Vaqtning tejash maqsadida guruh a'zolari tomonidan liderlar tanlanadi va ular o'rganilgan matnga oid asosiy ma'lumotlarni guruhdoshlariga so'zlab beradilar.
- \*Liderlarning fikri guruh a'zolari tomonidan to'ldiriladi.
- \*Barcha guruhlar o'zlariga berilgan matnni puxta o'zlashtirganlaridan so'ng matnlar guruhlararo almashtiriladi.

Shu tarzda hikoya barcha o'quvchilar tomonidan puxta o'zlashtiriladi.

Shu darslikda berilgan Xudoyberdi To'xtaboyevning "Xatosini tushungan bola" hikoyasida "Bumerang", "Rolli o'qish", "Maqollar bilag'oni" mashqlaridan foydalansak bo'ladi.

"Bumerang" texnologiyasidan foydalanib, mavzuni o'tish. Sinf 4 ta kichik guruhlariga bo'linib, har bir guruhga darslikdagi hikoyadan ma'lum qismlarni mustaqil o'rganish topshiriladi.

1-guruh uchun quyidagi parcha beriladi: *Ertasiga devoriy gazeta chiqdi. Unda Qosimjonning rasmini boplab chizishgan edi. Yuzi osmonga qaragan, bo'yni olmaning bandiddek, burnini shunaqangi uzun cho'zishibdiki, naq devoriy gazetadan chiqib ketay deb turibdi, rasmning ostiga "yosh shoir" deb yozib qo'yishgan....*

2-guruh uchun quyidagi parcha beriladi: *Bu voqea bir nafasda sinf rahbarining qulog'iga borib yetdi. Darsdan so'ng Qosimjonni o'quvchilar o'rtasida muhokama qiladigan bo'lishdi. Lekin sinf majlisi endigina boshlanay deb turganda, Qosimjon payt poylab derazadan oshib tushdi-da, Tohirni ergashtirib uyiga jo'nab qoldi....*

3- va 4-guruhlar uchun ham parchalar beriladi. O'quvchilar matnlarni qunt bilan o'qishadi. So'ngra yangi guruhlar tashkil qilinadi. Guruh a'zolari o'zlari o'qigan matnlarni sheriklariga tushuntirib berishadi. Matnlar o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgach, guruh ichida mustahkamlanadi. So'ngra guruh a'zolari oldingi holatdagi guruhlariga qaytishadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan o'qish darslarida erkin va mustaqillik qobiliyati shakllanadi. Mustaqil fikrlash qobiliyatining shakllanishi natijasida, o'quvchilar atrof olamdagi, jamiyatdagi qonunlarni, shuningdek, asardagi ijobiy va salbiy qahramonlar orqali insoniy fazilatlarini anglash, bilimlarni chuqur o'rganish, keng fikrlash, tegishli qarorlar qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Muhamedova Sh. A., Nishanova Z.T. Yosh davlari va pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2013-yil.
2. Matjonov S. va boshqalar. O'qish. 3-sinf uchun darslik. – Toshkent, 2019-yil.

### **TA'LIMDA MULTIMEDIALARDAN FOYDALANISH VA UNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI**

**M. J. Saidova, BuxDU dotsenti, p.f.b.f.d (PhD)**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada multimedia, uning elementlari, ta'lim jarayonida multimedialardan foydalanishning imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan. Multimedialar, ularning turlari va ta'lim jarayonidagi ahamiyati keng tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:** multimedia, musiqa, video, ovoz, animatsiya, tasvir, matn, jadval, diagramma.*

***Аннотация.** В данной статье видутся, размышления о мультимедии и её элементах, о возможностях использования мультимедий в образовательном процессе. Проанализированы важность мультимедий и их видов в процессе образования.*

***Ключевые слова:** мультимедия, музыка, видео, звук, анимация, изображение, текст, таблица, диаграмма.*

***Annotatin.** This article focuses on multimedia, its elements, the possibilities of using multimedia in the educational process. Multimedia has been extensively analyzed for their types and importance in the educational process.*

***Key words:** multimedia, music, video, sound, animation, vision, text, table, diagram.*

Hozirgi kunda dunyo multimedia texnologiyalarining rivojlanishi natijasida yuzaga keladigan har xil faoliyat turlarini kompyuterlashtirishning yangi bosqichiga guvoh bo'lmoqda. Grafika, animatsiya,

N.B.Adizova, H.Xudoyberdiyeva. O‘QISH DARSLARINI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SHAKLLARI .....	62
A. E. Ashurova, E. D. Davlatovna. BUXOROGA BOSMAXONALARNING KIRIB KELISHI ONA TILI ADABIYOTIMIZNI TEKNOLOGIK RIVOJLANISH OMILI .....	64
F. M. Qosimov, M. F. Ibrohimova. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA ARIFMETIK AMALLARNI QO‘LLASHDA TA‘LIM TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI.....	66
U.Sh. Tog‘ayeva, G.N. Roziqova. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARIDA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	67
F. N. Abdullayeva. PEDAGOGIK TEKNOLOGIYANING ASOSIY JARAYONLARI .....	69
Sh.Y. Yusufzoda, X.Y. Yusufzoda. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QITISHNING ZAMONAVIY AXBOROT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI .....	71

#### **IV SHU‘BA. BOSHLANG‘ICH TA‘LIMNI INTEGRATSIYALASHNING METODIK IMKONIYATLARI.....74**

Сахновская Елена Геннадьевна. МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ВНЕДРЕНИЯ КОНВЕРГЕНТНОГО ПОДХОДА В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ.....	74
Hamroyev A. R., Hasanova M. A., Toyirova N. M. BIRINCHI SINFLARDA O‘QUVCHILARIDA YOZUV QUROLLARIDAN FOYDALANIB, CHIROYLI YOZUV MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI.....	77
Яценко Владимир Сергеевич. ГЕОГРАФИЯ КУЛЬТУРЫ ИГРУШКИ КАК ВАЖНЫЙ ПРАКТИЧЕСКИЙ КОМПОНЕНТ ИНТЕГРАЦИИ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ.....	78
Ш.Бабаева. МОДЕЛИРОВАНИЕ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ ПРИ ПОМОЩИ ПРОЕКТИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ .....	81
Б.С.Жамилова. БОЛАЛАР КИТОБХОНЛИГИНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА ПЕДАГОГИК ТА‘LIM ИННОВАЦИОН КЛАСТЕРИНИНГ САМАРАДОРЛИГИ.....	83
Д. Ш.Джураева. МЕТОДИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ В ПРОЦЕССЕ РЕШЕНИЯ ЗАДАЧ.....	86
Узакова А.Б., Рохатова З.И., Алимова А.Н., Фазилова Н.С., Бабаева Ш.Б. СИСТЕМНЫЙ ПОДХОД К ОБУЧЕНИЮ ЯЗЫКУ И МЕТОДИЧЕСКАЯ СИСТЕМА РЕЧЕВОГО РАЗВИТИЯ ШКОЛЬНИКОВ .....	90
G. M. So‘fiboyeva. KICHIK YOSHLI BOLALARDA GEOMETRIK FAZOVIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH USLUBI .....	92
Sh.U.Sariyev. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILARINING NUTQINI O‘STIRISHDA O‘QISH VA ONA TILI DARSLARINI INTEGRATSIYALASHNING METODIK IMKONIYATLARI.....	95
G.T.Cho‘lliyeva, K.Q.Siddiqova. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QISH DARSLARIDA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	96
M. J. Saidova. TA‘LIMDA MULTIMEDIALARDAN FOYDALANISH VA UNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI .....	98
G. E. Saidova. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA GEOMETRIK MATERIALLAR USTIDA ISHLASH METODIKASI.....	101
M. J. Saidova. MASOFAVIY TA‘LIMDA O‘QITISH IMKONIYATLARI VA USULLARI .....	102
G. E.Saidova, A. Sh. Qoryog‘diyeva. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI MANTIQUIY MASALALAR YECHISHNI O‘RGATISH .....	105
O‘. Olloqova, G. Murodova. MATEMATIKA DARSLARIDA GEOMETRIK FIGURALARNI O‘RGATISHDA INTERFAOL METOD VA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH .....	106
M. R. Hamroyeva, F.N. G‘afurova. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH.....	109
G. E. Saidova, S. F. Sanoqulova. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILARIDA UZUNLIK HAQIDA TASAVVURLARNI SHAKLLANRITISH, UZUNLIKLARNI O‘LCHASH MALAKALARNI HOSIL QILISH .....	112
M. H. Ozodova. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SINTAKTIK TUSHUNCHALARNI EGALLASH BOSQICHLARI.....	114
F.M. Qosimov. IJODIY TOPSHIRIQLAR VA ULAR TIZIMIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR ...	116
N.Adizova, D. Husenova. SINFLARDA UNLI TOVUSHLAR TALAFFUZI USTIDA ISHLASH .....	118